

AKSIYADORLIK TIJORAT "ALOQABANK" KUZATUV KENGASHI
YIG'ILISHINING 036-SON BAYONNOMASIDAN
KO'CHIRMA

Toshkent shahri Shayxontohur tumani,
Olmazor MFY, O'qchi ko'chasi, 2-uy.

3-sentabr 2026-y.

Kun tartibidagi masalalar ko'rib chiqilishida ishtirok etayotgan Kuzatuv Kengashi Raisi va a'zolari:

Shermatov Sherzod Xotamovich;
Umarov Olimjon Muxamadjanovich;
Yuldashev Faxriddin Turakulovich;
Xaytmetov Rustam Maxkamjonovich;
Mamanov Ruslanbek Abduxalikovich;
Mamadaliyev Muxsinjon Abdurasulovich;
Ro'zikulov Shohrux Toxirovich;
Andrew Breus;
Nadejda Strelciuc;
Klaus Mangold Juergen;
David Tediashvili.

Ishtirokchilar:

Bank Boshqaruvi Raisi - K.Irisbekova;
Bankning tegishli tarkibiy tuzilmalari rahbarlari.

Kuzatuv Kengashi yig'ilishining kvorumi – 100 foiz.

Kuzatuv Kengashi yig'ilishi kotibi: I.Ibraximov – Korporativ boshqaruv xizmati boshlig'i.

Yig'ilish kun tartibi Kuzatuv Kengashi a'zolari tomonidan bir ovozdan ma'qullandi.

1. AT "Aloqabank" boshqaruv tizimini takomillashtirish to'g'risida.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-iyuldagi yoshlar bilan ochiq muloqot bo'lib o'tganligi va AT "Aloqabank"da yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash masalalariga mas'ul bo'lgan Boshqaruv Raisi o'rinbosari lavozimini joriy etish topshirig'i berilganligi to'g'risida ma'lumot berildi.

Shuningdek, Yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha Boshqaruv Raisi o'rinbosari lavozimini joriy etish maqsadga muvofiqligi yuzasidan taklif berildi.

Shu maqsadda bank Boshqaruvi tomonidan, bankning rahbarlik lavozimlariga tayinlanish uchun zaxiraga olingan xodimlarning sifat tarkibidan kelib chiqib, ushbu lavozimga Tursunov Iskandar Umarjonovichning nomzodi tavsiya etildi.

Bank Ustavining 6.39.10-bandida "o'zining vakolatlari doirasida, kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va tayyorlash masalalarini hal qilish, bankning rahbarlik lavozimlariga nomzodlarni bank Kuzatuv kengashiga tasdiqlash uchun kiritish" bank Boshqaruvining vakolatiga kirishi belgilangan.

Shu bilan birgalikda, bank Boshqaruvi 7 (yetti) nafar a'zodan iborat bo'lishini hisobga olib, Boshqaruv Raisining taqdimnomasiga asosan AT "Aloqabank" Boshqaruvi a'zolariga nomzod sifatida Tursunov Iskandar Umarjonovichni saylash (*tayinlash*) va hozirda Boshqaruv a'zosi bo'lgan Tursunov Oltiboy Umirzakovichning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish masalalari bank Boshqaruvi yig'ilishida va Kadrlar va mukofotlash qo'mitasi yig'ilishida dastlabki tarzda ko'rib chiqilib, yakuniy qaror Bank kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinishi ko'rsatilgan.

Shuningdek, yig'ilishda O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 59-moddasida, jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash masalasi aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatiga kirishi hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda 3252-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 25-maydagi 12/1-son qarori bilan tasdiqlangan "Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to'g'risida"gi Nizomning 77-bandida bank boshqaruvi a'zolari, shu jumladan raisi va uning o'rinbosarlari lavozimiga kirishishidan oldin Markaziy bank bilan kelishib olinishi lozimligi belgilangan.

Shu bilan birga, Nizomning 107-bandida bank vakolatli organining nomzodni lavozimiga saylash (tayinlash) to'g'risidagi qaroridan ko'chirma bank nomzodni kelishib olish uchun Markaziy bankka taqdim etilishi ko'rsatilgan.

Mazkur masala bank Boshqaruvining 2026-yil 3-avgustdagi 570-sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tegishli qarori qabul qilingan. Shuningdek, AT "Aloqabank" Kadrlar va mukofotlash qo'mitasi yig'ilishining 2026-yil 28-avgustdagi 004-sonli bayonnomasida ko'rib chiqilgan hamda dastlabki tarzda ma'qullangan.

**Bank Kuzatuv kengashi ushbu masala muhokamasidan so'ng,
QAROR QILDI:**

1. Bank Boshqaruvi yig'ilishining 2026-yil 3-avgustdagi 570-sonli bayoni ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Bankning shtatlar jadvaliga qo'shimcha ravishda 1 ta birlik Boshqaruv Raisi o'rinbosari lavozimi kiritilsin hamda ushbu lavozimga Tursunov Iskandar Umarjonovichning nomzodi ma'qullansin.
3. Tursunov Iskandar Umarjonovichni Yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha Boshqaruv Raisi o'rinbosari lavozimiga tayinlash bilan birga bank Boshqaruvining a'zolariga saylansin.
4. AT "Aloqabank" Boshqaruvi a'zosi bo'lgan Tursunov Oltiboy Umirzakovichning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatilsin.
5. AT "Aloqabank"ning tashkiliy tuzilmasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish masalasi qonunchilikda belgilangan tartibda bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilsin.
6. AT "Aloqabank" Boshqaruvi (K.Irisbekova) Tursunov Iskandar Umarjonovichni Boshqaruv Raisi o'rinbosari lavozimga kirishishidan oldin Markaziy bank bilan kelishib olinishini ta'minlasin.
7. Mazkur qaror ijrosi bajarilishini nazorat qilish bank Boshqaruvi (K.Irisbekova) zimmasiga yuklatilsin.

Yoqlaganlar 11-ta ovoz;

Qarshilar 0-ta ovoz;

Betaraflar 0-ta ovoz.

Ko'chirma asliga to'g'ri

AT "Aloqabank" Boshqaruvi Raisi v.b.



K.Irisbekova